



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2026-yil 25-iyul, shanba,
65 (24.245)-son

O'zbek xalq
maqoli

Elli yer -
bozor,
elsiz yer -
mozor

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



info@zarnews.uz

MUSTAQILLIK

35



YAGONA VATAN, YAGONA XALQ BO'LIB,
YANGI HAYOT VA KELAJAK YARATAMIZ!



Sport infratuzilmasini yaxshilashdan hududlarni kompleks rivojlantirishgacha

23-iyul kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdan tashqari, o'ttiz uchinchi sessiyasi bo'lib o'tdi. Kengash raisi Sh.Negmatov boshqargan sessiya ishida O'zbekiston Respublikasi sport vaziri A.Ikromov, viloyat hokimi A.Boboyev hamda tegishli boshqarma va idoralar rahbarlari ishtirok etdi.

Kun tartibiga muvofiq, dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida shu yilning 7-aprel kuni jismoniy tarbiya va sport sohasini yangi bosqichga olib chiqish masalalari yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ili-shida berilgan topshiriqlar ijrosi muhokama qilindi.

Ta'kidlanishicha, viloyatda o'tgan yil "Besh tashabbus olimpiadasi" sport musobaqalarida 14 sport turi bo'yicha 1,3 million nafardan ziyod yoki 80 foiz yoshlar qamrab olingan. Musobaqalar yakuniga ko'ra, viloyat jamoasi 18 ta oltin, 14 ta kumush, 8 ta bronza medallari bilan respublikada birinchi o'rinni egalladi. Shuningdek, 2025-yilgi kompleks va xalqaro sport musobaqalarida samarqandlik sportchilar tomonidan jami 143 ta medal (43 ta oltin, 56 ta kumush, 44 ta bronza) qo'lga kiritilgan.

Sport vaziri A.Ikromov o'tgan yil "Prezident olimpiadasi" sport musobaqalarida viloyat delegatsiyasi 222 nafar sportchi bilan ishtirok etib, 31 ta medal (8 ta oltin, 6 ta kumush, 17 ta bronza) bilan umumjamoa hisobida 7-o'rinni egallagan viloyat sporti salohiyatiga mos kelmasligini qayd etdi. Toyloq olimpiya va paralimpiya markazi, Samarqand shahridagi 2-son sport maktabi, Jomboy va Qo'shrabot tumanlaridagi sport muassasalari sportchilari ushbu musobaqalarda qoniqarli natija ko'rsatmaganini tanqid qildi.

Sessiyada davlat rahbari ishtirokida o'tkazilgan yig'ilishda belgilab berilgan vazifalar va o'tgan yilgi natijalardan kelib chiqib, yil yakuniga qadar "Besh tashabbus olimpiadasi" va boshqa 12 mingdan ortiq ommaviy sport musobaqalarini tashkil etish orqali 1,9 million aholini qamrab olish zarurligi ta'kidlandi. Shuningdek, 5 ming nafar iqtidorli yoshlarni sport maktablariga seleksiya qilish, joriy yilda Yaponiyaning Aichi va Nagoya shahrida bo'lib o'tadigan yozgi Osiyo va Paraosiyo o'yinlari-

ga viloyat sportchilarini tayyorlash va kamida 34 nafar sportchining muvaffaqiyatli ishtirokini ta'minlash bo'yicha soha vakillariga topshiriqlar berildi. Sport sohasida belgilab berilgan maqsadli ko'rsatkichlar va ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash bo'yicha viloyat ishchi guruhi tuzildi.

Shundan so'ng sessiyada viloyatda sanoat loyihalarini zarur infratuzilma bilan ta'minlash, ijtimoiy soha obyektlarini qurish, avtomobil yo'llari, ichimlik suvi hamda oqova suv tarmoqlarining holati va elektr ta'minotini yaxshilash, irrigatsiya va drenaj tarmoqlarini qurish va ta'mirlash hamda servis va renovatsiya loyihalarining manzillik dasturini tasdiqlash masalasi ko'rib chiqildi.

Viloyat iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari Aziz Rashidovning qayd etishicha, davlatimiz rahbarining 2026-yil 10-iyundagi "Samarqand viloyati hududlarini kompleks rivojlantirish va aholi turmush darajasini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida viloyatda sanoat loyihalarini zarur infratuzilma bilan ta'minlash, ijtimoiy soha obyektlarini qurish, avtomobil yo'llari, ichimlik hamda oqova suv tarmoqlari holati va elektr ta'minotini yaxshilash belgilangan. Shuningdek, irrigatsiya va drenaj tarmoqlarini qurish va ta'mirlash hamda servis va renovatsiya loyihalarini amalga oshirish uchun Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi mablag'lari hisobidan viloyat hokimligiga 2 yillik imtiyozli davr bilan 7 yil muddatga 100 million AQSh dollari ekvivalentida milliy valyutada yillik 7 foiz stavkada kredit mablag'i ajratilgan.

Muhokamalar davomida hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga xizmat qiluvchi ushbu loyihalarini belgilangan muddatda, sifatli amalga oshirish bo'yicha manzillik dastur tasdiqlandi.

Sessiyada Kengash vakolatiga taalluqli yana boshqa masalalar ko'rib chiqilib, qarorlar qabul qilindi.



24-25-iyul kunlari Samarqand shahrida yurtimiz tarixida ilk bor Birodar shaharlar xalqaro forumi o'tkazilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi, Birodar shaharlar alyansi hamda viloyat hokimligi hamkorligida tashkil etilgan tadbir 20 ga yaqin xorijiy mamlakatlardan ekspert va mutaxassislar, shahar ma'muriyatlari mas'ullari, O'zbekistondagi xorijiy davlatlar elchixonalari hamda xalqaro tashkilotlar vakillari, davlat va jamoat tashkilotlari xodimlari ishtirok etmoqda.

Forum "Birodar shaharlar - barqaror rivojlanish va xalq diplomatiyasining yangi modeli" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya bilan o'z ishini boshladi.

Anjuman ochilishida Millatlararo munosabatlar va xorijdagi vatandoshlar masalalari bo'yicha qo'mitasi raisi Qahramon Sariyev, viloyat hokimi Adiz Boboyev va boshqalar so'zga chiqib, yurtimizda ilk bor tashkil etilayotgan mazkur xalq-

SAMARQAND — BIRODAR SHAHARLAR xalqaro forumi mezboni

ro forum yurtimiz hududlarining dunyoning turli shaharlari bilan savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarni rivojlantirish, turizm va boshqa yo'nalishlarda hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishini ta'kidladilar.

Anjuman yalpi majlisida Yaponiyaning Nara shahri meri Motonobu Nakagava, Turkmanistonning Ashxobod shahri meri Rahim Gandimov, Ozarbayjonning Ganja shahri hokimi Niyoz Bayramov, Serbiyaning Belgrad shahri meri o'rinbosari Vesna Vidovich va boshqalar so'zga chiqib, Samarqandda o'tkazilayotgan mazkur tadbir shaharlar o'rtasida xalq diploma-

tiyasi asosida do'stlik, hamjihatlik va madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilishi, o'zaro tajriba almashish uchun qulay imkoniyat ekanligini ta'kidladilar.

Forum doirasida B2B va B2G uchrashuvlari, investitsiya taqdimotlari, ko'rgazmalar tashkil etildi. Shuningdek, o'zaro hamkorlik bo'yicha memorandumlar tuzildi.

Jumladan, Samarqand shahri va Serbiyaning Belgrad, Turkiyaning Nig'de, Rossiya Federatsiyasining Ryazan shaharlari rahbarlari birodarlik aloqalarini yo'lga qo'yishga kelishib oldilar.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Sarhisob

OLTI OYLIK YAKUNLARI

iqtisodiy o'sish, yangi imkoniyatlar va inson farovonligida namoyon bo'lmoqda

Samarqand — asrlar davomida jahon sivilizatsiyasining yirik markazlaridan biri bo'lib kelgan, boy tarixiy merosi, betakror madaniyati va buyuk allomalar izi bilan dunyoga tanilgan muqaddas zamin. Bugun bu qadimiy shahar va uning atrofidagi hududlar nafaqat tarixiy qiyofasi, balki zamonaviy iqtisodiy salohiyati, innovatsion loyihalari, investitsiyaviy jozibadorligi va xalqaro nufuzi bilan ham yangi taraqqiyot bosqichiga ko'tarilmoqda.

So'nggi yillarda Samarqand viloyatida amalga oshirilayotgan keng ko'lami ishlohtlar zamirida bir maqsad - aholi farovonligini ta'minlash, iqtisodiy o'sishni barqarorlashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish va hududning mavjud imkoniyatlaridan samarali foydalanish vazifasi muajassan.

2026-yilning birinchi yarim yilligi natijalari ham bu jarayonlar izchil davom etayotganini ko'rsatdi. Viloyat iqtisodiyotining barcha asosiy yo'nalishlarida o'sish sur'atlari ta'minlanib, sanoat, xizmatlar, turizm, investitsiya va eksport sohalarida salmoqli natijalarga erishildi. Hisobot davrida viloyatimizning yalpi hududiy mahsuloti hajmi 67,4 trillion so'mni tashkil etdi. Iqtisodiy o'sish sur'ati 109,7 foizga yetdi. Bu ko'rsatkichlar hudud iqtisodiyotida barqarorlik saqlanayotgani va yangi o'sish nuqtalari shakllanayotganidan dalolat beradi.

Muhimi, bu natijalar faqat raqamlarda emas, balki aholi hayotidagi o'zgarishlarda o'z

ifodasini topmoqda. Yangi korxonalar, xizmat ko'rsatish obyektlari, turistik maskanlar va tadbirkorlik tashabbuslari mamlakat insonlar uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.

Olti oylik natijalar esa bir haqiqatni yana bir bor tasdiqladi: izchil ishlohtlar, samarali boshqaruv va inson manfaatiga yo'naltirilgan loyihalar Samarqandning barqaror rivojlanishi uchun mustahkam poydevor yaratmoqda.

BARQAROR RIVOJLANISH ASOSI

Hudud iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi, avvalo, ishlab chiqarish salohiyati, sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligi va yangi investitsiya loyihalarining samaradorligi bilan belgilanadi. Viloyatimizda so'nggi yillarda sanoatni modernizatsiya qilish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsu-



lotlar ishlab chiqarishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

2026-yilning birinchi yarim yilligi yakunlari ham bu borada amalga oshirilayotgan ishlar yuqori natija berayotganini ko'rsatdi. Bu davrda sanoat hajmi 109,8 foizga, qishloq xo'jaligi 104,5 foizga, qurilish sohasi 137,7 foizga, xizmatlar hajmi esa 116,2 foizga o'sdi.

Tog'-kon sanoatida 176,9 foiz, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishda 149,9 foiz, avtotransport vositalari ishlab chiqarishda 123,6 foiz, metallurgiya sohasida 116,2 foiz, tayyor kiyim-kechaklar ishlab chiqarishda 114,2 foiz o'sish qayd etildi.

Sanoatdagi o'sishning muhim omillaridan biri yangi korxonalarining ishga tushirilishi va mavjud ishlab chiqarish quvvatlarining kengaytirilishidir.

Qo'shrabot tumanidagi "Si

Tong Stone" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 19 ming kub metr granit toshi qazib olindi. Bu ko'rsatkich 2025-yilning mos davriga nisbatan 7 barobarga oshgan. Mazkur natija hududda tabiiy resurslardan samarali foydalanish, sanoat xomashyo bazasini kengaytirish va qo'shimcha qiymat yaratish borasidagi imkoniyatlarni ortib borayotganini ko'rsatadi.

Qurilish materiallari sanoatida ham salmoqli o'sish kuzatildi. Misol uchun, Past Darg'om tumanidagi "Samarqand Polimer" mas'uliyati cheklangan jamiyatida 1,200 ming metr PVX profilari ishlab chiqarildi. Natijada korxonada ishlab chiqarish hajmi uch barobarga oshdi.

Metallurgiya tarmog'ida esa "Aziya metall proff" korxonasi alohida natijalarga erishdi. Korxonada 4,2 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,3 barobar o'sish ta'minlandi.

Sanoat va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlaridagi o'sishni ta'minlashda investitsiyalarni jalb qilish muhim o'rin tutadi. O'tgan yarim yilda hududiy investitsiya dasturi doirasida 1,6 trillion so'mlik 76 ta loyiha ishga tushirildi. Ushbu loyihalar natijasida 592 milliard so'mlik qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati yaratildi.


Samarqand shahridagi "Dilrabo Agro Fresh" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan amalga oshirilgan loyiha buning yaqqol misolidir. Korxonaga 60 milliard so'm investitsiya kiritilib, 4 ming tonna murabbo ishlab chiqarish quvvati yaratildi. Shuningdek, 60 ta yangi ish o'rnini tashkil etildi.

Bu kabi loyihalar ishlab chiqarish hajmini oshirish bilan birga, aholi bandligini ta'minlash, mahalliy xomashyoni qayta ishlash va yangi eksport imkoniyatlarini yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

(Davomi 2-sahifada) >>>



Toshkent-Samarqand
pullik avtomobil yo'li
qurilishiga start berildi





**1994-YIL
OKTABR**
**15-oktabr kuni Registonda
Mirzo Ulug'bekning
600 yillik yubileyiga
bag'ishlangan xalqaro ilmiy
konferensiya ochildi.**

**Butunjahon turizm tashkiloti
bosh kotibi Xuan Antonio
Savinyak ishtirokida "Buyuk
ipak yo'li" xalqaro turizmi
bo'yicha Samarqand
deklaratsiyasi imzolandi.**

**1995-YIL
APREL**
**Samarqandga Indoneziya
Respublikasi Prezidenti
Suxarto janoblari rafiqasi
bilan tashrif buyurdi.
Indoneziya delegatsiyasi
Imom Buxoriy masjidini
ziyorat qildi.**

**1996-YIL
MAY**
**O'zaro hamkorlikni
mustahkamlash maqsadida
Turkiya Prezidenti
Sulaymon Demirel
Samarqandga keldi.**

OKTABR
**18-oktabr kuni Samarqand
shahrida Amir Temur
haykali ochildi va shaharga
birinchi raqamli "Amir
Temur" ordeni berildi.
18-oktabr "Samarqand
shahri kuni" deb e'lon
qilindi.**

**22-oktabr kuni O'zbekiston
Respublikasi Prezidenti
Islom Karimov hamrohligida
Ozarbayjon Prezidenti
Haydar Aliyev, Turkiya
Prezidenti Sulaymon
Demirel, Qirg'iziston
Prezidenti Asqar Akayev,
Qozog'iston Prezidenti
Nursulton Nazarboyev
va Tojikiston Prezidenti
Imomali Rahmonov Amir
Temur tavalludining 660
yillik yubileyi munosabati
bilan Samarqandga keldi.**

**1997-YIL
APREL**
**7-aprel kuni Samarqandda
ilk marta plyonka ostiga
chig'it ekildi.**

AVGUST
**"Sharq taronalari" birinchi
xalqaro musiqa festivali
o'tkazildi.**

**1998-YIL
FEVRAL**
**Qo'shrabot tumanidan
Imom Buxoriyning
Qohiradan ko'chirma qilib
olib kelingan noyob kitobi
topildi.**

OKTABR
**23-oktabr kuni buyuk
muhaddis Imom Buxoriy
tavalludining 1225 yilligi
munosabati bilan tiklangan
masjid-majmuaning ochilish
marosimi o'tkazildi.**

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

IQTISODIYOTNING MUHIM O'SISH NUQTASI

Bugungi kunda xizmatlar sohasi iqtisodiyotning eng jadal rivojlanayotgan yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Chunki ushbu tarmoq nafaqat aholi ehtiyojlarini qondirish, balki yangi ish o'rinlari yaratish, tadbirkorlik faolligini oshirish va hududlarning iqtisodiy salohiyatini yuksaltirishda ham muhim o'rin tutadi.

Viloyatimizda xizmatlar sohasini rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar natijasida tarmoqning ko'lamini kengayib, zamonaviy xizmat turlari ko'paymoqda.

2026 yilning birinchi yarim yilligi yakunlarga ko'ra, viloyatda xizmatlar ko'rsatish hajmi 47,3 trillion so'mga yetdi. Sohada o'sish sur'ati 116,2 foizni tashkil qildi.

Hisobot davrida xizmatlar sohasining barcha asosiy yo'nalishlarida ijobiy o'sish qayd etildi. Ayniqsa, moliyaviy xizmatlar sohasida 129,8 foiz, aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida 119,8 foiz, ta'lim xizmatlarida esa 119,5 foiz o'sish ta'minlandi.

Xizmatlar sohasidagi o'sishni ta'minlash maqsadida hududiy dasturlar doirasida qator istiqbolli loyihalar amalga oshirildi. Xususan, birinchi yarim yillikda qiymati 1,5 trillion so'm bo'lgan 205 ta loyiha ishga tushirildi. Ushbu loyihalar natijasida 2044 ta yangi ish o'rni yaratildi. Yangi xizmat ko'rsatish obyektlarining tashkil etilishi aholiga qulaylik yaratish bilan birga, hududlarda iqtisodiy faollikni oshirmoqda.

Samarqand shahrida "Pelgrim Prime" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan amalga oshirilgan 14,5 milliard so'mlik mehmonxona loyihasi ana shunday istiqbolli tashabbuslardan biri hisoblanadi.

Urgut tumanida "MEDPROFI" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan qiymati 25 milliard so'm bo'lgan tibbiy xizmat loyihasi amalga oshirildi. Mazkur loyiha zamonaviy tibbiy xizmatlar ko'lamini kengaytirish bilan birga, yangi ish o'rinlari yaratish imkonini berdi.

Xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishi uchun tadbirkorlik infratuzilmasini yaxshilash va yangi obyektlar tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, servis obyektlari uchun 53,7 gektar yer maydoni auksionga chiqarildi. Shundan 38,1 gektari sotilishi natijasida yangi xizmat ko'rsatish obyektlari tashkil etildi. Bu loyihalar hisobiga 7,6 ming nafar aholining bandligi ta'minlandi.

Shuningdek, avtomobil yo'llari bo'yida aholi va tranzit harakat ishtirokchilari uchun zamonaviy xizmatlar tizimini kengaytirish maqsadida qiymati 166,8 milliard so'm bo'lgan 34 ta loyiha ishga tushirildi. Natijada 271 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Hududlar infratuzilmasini rivojlantirish, savdo va xizmat ko'rsatish madaniyatini yangi bosqichga olib chiqish maqsadida "24/7" tamoyili asosidagi ko'chalarni tashkil etish ishlari amalga oshirilmog'da. Bu yo'nalishda 7 ta markaziy ko'chaga 11,1 milliard so'm mablag' yo'naltirildi. Natijada 112 ta zamonaviy servis obyekti tashkil etildi va 393 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Samarqand shahridagi Rudakiy ko'chasining gastronomik ko'chaga aylantirilishi mazkur tashabbusning samarali namunasi bo'ldi. Bu yerda 24 ta zamonaviy savdo va xizmat ko'rsatish obyekti ish boshladi. Natijada 95 nafar fuqaro uchun yangi daromad manbai yaratildi.

Bunday loyihalar shaharning turistik jozibadorligini oshirish, kichik biznesni rivojlantirish va aholi uchun qulay muhit yaratishga xizmat qilmoqda.

Xizmatlar sohasini yanada rivojlantirish maqsadida Prezident qarori asosida 152,7 milliard so'm mablag' ajratildi. Ushbu mablag'lar doirasida "Loyihaviy yondashuv" asosida



48 ta yirik tashabbus amalga oshirilmog'da. Xususan, Nurobod

Birinchi yarim yillikda Samarqand shahrida 7 ta xalqaro tadbir o'tkazildi

OLTI OYLIK YAKUNLARI

iqtisodiy o'sish, yangi imkoniyatlar va inson farovonligida namoyon bo'lmoqda

tumanidagi Tapaqul mahallasida turizm va dam olish maskanlarini tashkil etish hamda zarur infratuzilmani yaratish uchun 8 milliard so'm mablag' yo'naltirildi. Loyiha amalga oshirilishi natijasida 5 ta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etiladi, 8 ta tadbirkorning faoliyati kengaytiriladi va 45 ta yangi ish o'rni yaratiladi.

DUNYONING TURIZM DARVOZASI

Bugun viloyatimizda turizm sohasidagi asosiy maqsadlardan biri sayyohlar sonini ko'paytirish bilan birga, ularning hududda qolish muddatini uzaytirish va sifatli xizmatlar bilan ta'minlashdan iborat. Tahlillarga ko'ra, yilning birinchi yarim yillikda Samarqandga 3,4 million nafardan ortiq xorijiy va 4,7 million nafar mahalliy sayyoh keldi.

Turistlarning tashrif davomiyligi o'rtacha 3 kunga yetdi. Bu avvalgi davrga nisbatan 0,5 kunga ko'pdir. Shuningdek, bir nafar sayyohning o'rtacha xarajati 400 dollarni tashkil etib, 70 foizga oshdi. Buning natijasida turizm xizmatlari eksporti hajmi 578,1 million dollarga yetdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 144 foiz o'sish ta'minlandi.

Soha taraqqiyotida eng muhim omillardan biri sayyohlar uchun qulay va zamonaviy infratuzilmani shakllantirishdan iborat. Shu maqsadda viloyatda yangi mehmonxonalar, xostellar, oilaviy mehmon uylari va boshqa joylashtirish vositalarini tashkil etish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmog'da.

Jumladan, o'tgan olti oy davomida 1474 o'rinli 65 ta yangi joylashtirish vositasi ishga tushirildi. Natijada viloyatdagi joylashtirish obyektlarining umumiy soni 929 taga,

ularda-gi o'rinlar soni esa 23,3 mingtaga yetkazildi.

Shu o'rinda qayd etish lozim, yangi turistik obyektlar nafaqat sayyohlarni qabul qilish imkoniyatlarini oshirmog'da, balki mahalliy aholi uchun ham yangi ish o'rinlari yaratmoqda. Samarqand tumanida "Original maks lyuks" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan amalga oshirilgan "Edelvays tog' turistik markazi" loyihasi ana shunday yirik tashabbuslardan biridir. Qiymati 40 million dollar bo'lgan mazkur zamonaviy majmua tog' turizmini rivojlantirish, yangi dam olish maskanlari yaratish va hududning turistik jozibadorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Samarqandning turistik salohiyatida ziyorat turizmi alohida o'rin tutadi. Zero, buyuk allomalar hayoti va ilmiy merosi bilan bog'liq muqaddas qadamlar yillar davomida dunyoning turli mamlakatlaridan keluvchi mehmonlarni o'ziga jalb etib kelmoqda. Imom Buxoriy yodgorlik majmuasining to'liq foydalanishga topshirilishi mazkur yo'nalishda yangi imkoniyatlar yaratdi. Majmua kuniga 65 ming nafar ziyoratchini qabul qilish quvvatiga ega bo'ldi. Oxirgi uch oy davomida ziyoratgohga 2,8 milliondan ziyod mehmon tashrif buyurdi.

Samarqandning jahon miqyosidagi nufuzini oshirishda xalqaro tadbirlarning ahamiyati katta. Birinchi yarim yillikda Samarqand shahrida 7 ta xalqaro nufuzli tadbir o'tkazildi. Bunday tadbirlar shaharning nafaqat turistik, balki ishbilarmonlik va madaniy markaz sifatidagi mavqeini ham mustahkamlamoqda. Shu bilan birga, sayyohlarga xizmat ko'rsatishning yangi shakllari yo'lga qo'yilmog'da. Misol uchun, Samarqand shahridagi Siyob bozorining tungi rejimga o'tkazilishi ana shunday loyihalardan biri bo'ldi. Natijada bozorga kuniga o'rtacha 10 ming nafar mehmon tashrif buyurmoqda, kunlik savdo aylanmasi esa 165 ming dollarga yetdi. Bu tashabbus Samarqandning gastronomik turizm imkoniyatlarini yanada kengaytirdi.

Zamonaviy turizm faqat tarixiy obidalar bilan cheklanib qolmaydi. Bugun sayyohlar uchun yangi tajriba va imkoniyatlar taqdim etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu maqsadda ekstremal, ekologik va qish-

loq turizmini rivojlantirish bo'yicha qator loyihalar amalga oshirilmog'da. Viloyatning Bog'izog'on, Pangat va Yangi joy mahallalariga "turizm qishlog'i" maqomi berildi. Ushbu hududlardagi 85 ta xizmat ko'rsatish nuqtasi orqali sayyohlarga etnoturizm, gastronomik va ekologik turizm yo'nalishlarida xizmatlar ko'rsatilmog'da.

Bu jarayon mahalliy aholi uchun yangi daromad manbalari yaratib, qishloq hududlarida iqtisodiy faollikni oshirmog'da.

Viloyatimizda tabiiy hududlardan samarali foydalanish va ekoturizmini rivojlantirish bo'yicha ham istiqbolli rejalar ishlab chiqilmog'da. Misol uchun, Kattaqo'rg'on suv ombori atrofida 30 million dollarlik, Ishtixon tumanidagi Oqdaryo suv ombori atrofida esa 38 million dollarlik ekoturizm maskanlarini barpo etish bo'yicha master-rejalar tayyorlanmog'da.

Shuningdek, Urgut tumanidagi 60 gektarlik "Qoratepa", 178 gektarlik "Soyg'o's" va boshqa hududlarda "Samarqand eko va ekstremal" turistik-rekreasion zonasini tashkil etish bo'yicha ishlar olib borilmog'da.

Ushbu loyihalar Samarqandning turistik mahsulotini yanada boyitib, xalqaro sayyohlik bozorida o'rnini yanada mustahkamlaydi.

YUKSALISHNING YANGI BOSQICHI

Har qanday hududning barqaror iqtisodiy taraqqiyoti, avvalo, investitsiya muhitining jozibadorligi, ishlab chiqarish

sa-lohi-yatining yuksalishi va tashqi bozorlarda munosib o'rin egallash imkoniyatlari bilan belgilanadi.

2026-yilning birinchi yarim yilligi natijalari viloyatimizda bu yo'nalishdagi islohotlar samarasi ham yuqori ekanini ko'rsatdi. Jumladan, hududiy investitsiya dasturlari doirasida qiymati 263,2 million dollar bo'lgan 350 ta loyiha foydalanishga topshirildi. Ushbu loyihalarining 79 tasi sanoat sohasiga, 202 tasi xizmatlar yo'nalishiga, 69 tasi qishloq xo'jaligi tarmog'iga to'g'ri keladi. Yangi ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish obyektlarining ishga tushirilishi natijasida 4361 ta yangi ish o'rni yaratildi.

Hisobot davrida Nurobod tumanida "Nanjing Cement Group" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan qiymati 63,5 million dollar bo'lgan sement zavodi ishga tushirildi. Yillik quvvati 1 million tonna bo'lgan mazkur korxona qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmini oshirish, ichki bozor ehtiyojini qondirish va 200 nafar fuqaroning bandligini ta'minlash imkonini berdi.

Samarqand viloyatining investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda xorijiy sarmoyalarni jalb etish muhim yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Joriy yilda viloyat iqtisodiyotiga 4,4 milliard dollarlik xorijiy investitsiyalarni o'zlashtirish va umumiy qiymati 10 milliard dollar bo'lgan 189 ta yirik loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. Yilning birinchi yarmida 1,2 milliard dollar miqdorida to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar o'zlashtirildi.

Jumladan, Bulung'ur tumanida "Yangi Osiyo xalqaro biofarmasevtika" mas'uliyati cheklangan jamiyati tomonidan 30,7 million dollarlik, Ishtixon tumanida Samarqand xalqaro kolleji tomonidan 18,9 million dollarlik xorijiy investitsiya loyihalari amalga oshirildi.

Bu kabi tashabbuslar iqtisodiyotning yangi tarmoqlarini rivojlantirish, zamonaviy bilim va texnologiyalarni jalb qilish hamda yuqori malakali kadrlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda.

IQTISODIY SALOHİYATNING ASOSIY KO'RSATKICHI

Mahsulotlarni tashqi bozorlarga olib chiqish, eksport hajmini oshirish va yangi bo-



zorlarni o'zlashtirish hudud iqtisodiy rivojining muhim yo'nalishlaridan biridir. Shu ma'noda joriy yilning birinchi yarmida 497,1 million dollarlik mahsulotlar eksport qilinib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 21 foiz o'sishga erishilganini ta'kidlash lozim.

Bundan tashqari, eksport tarkibini diversifikatsiya qilish maqsadida 87 ta yangi korxona tashqi bozorlarga jalb etildi. Jomboy tumanidagi "Iqbol Trade" mas'uliyati cheklangan jamiyatining Afg'onistonga 1,2 million dollarlik un mahsulotlari eksport qilgani ana shunday samarali natijalardan biridir.

Bugungi global bozor sharoitida mahsulot sifati va xalqaro standartlarga muvofiqlik eksport muvaffaqiyatining asosiy shartlaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda viloyatda korxonalarni xalqaro standartlarga moslashtirish va sertifikatlash ishlari katta e'tibor qaratilmog'da. Hisobot davrida 40 ta korxona xalqaro standartlar asosida tayyorlanib, ularga 81 ta sertifikat, jumladan ISO 9001, CE, OEKO-TEX kabi xalqaro sertifikatlar olishda amaliy yordam ko'rsatildi.

Bundan tashqari, korxonalarimizning nufuzli xalqaro ko'rgazmalarda ishtirok etishi eksport imkoniyatlarini kengaytirishda muhim omilga aylanmog'da. Jumladan, viloyatning 37 ta korxonasi Germaniyadagi Heimtextil, Birlashgan Arab Amirliklaridagi Gulfood, Rossiyadagi RosBuild kabi xalqaro ko'rgazmalarda qatnashdi. Natijada Niderlandiya, Yangi Zelandiya, Bangladesh kabi yangi bozorlarga chiqish imkoniyatlari yaratildi.

O'tgan olti oyda GSP+ tizimi doirasida Yevropa bozoriga 17 million dollarlik mahsulot eksport qilindi. Umuman, Yevropa yo'nalishidagi eksport hajmi o'tgan yilga nisbatan 113 foizga o'sdi.

Eksport bozorlari esa Rossiya, Xitoy, Afg'oniston, qo'shni davlatlar va Yevropa mamlakatlari hisobiga tobora kengayib bormog'da.

Eng muhimi, bu jarayonlar aholi uchun yangi ish o'rinlari, tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar va hudud uchun barqaror iqtisodiy o'sish istiqbollarini yaratmoqda. Pirovardida Samarqand nafaqat tarixiy va madaniy markaz, balki investitsiya uchun jozibador, eksport salohiyati yuqori va zamonaviy iqtisodiyotga ega hudud sifatida yangi taraqqiyot bosqichiga qadam qo'ymoqda.

YANGI TARAQQIYOT MARRALARI SARI

Joriy yilning birinchi yarmi viloyatimiz uchun iqtisodiy o'sish, ijtimoiy taraqqiyot va yangi imkoniyatlar shakllangan muhim davr bo'ldi. Yuqorida qayd qilinganidek, sanoatda yangi ishlab chiqarish quvvatlari ishga tushirildi, xizmatlar sohasi kengaydi, turizm yo'nalishida xalqaro nufuz yanada mustahkamlandi, investitsiya va eksport ko'rsatkichlarida sezilarli natijalar qayd etildi. Ammo eng muhim natija bu raqamlar ortida turgan inson manfaati, ya'ni yangi ish o'rinlari, yangi daromad manbalari va aholi uchun yaratilayotgan imkoniyatlardir.

Ya'ni, Samarqandda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy mezon faqat iqtisodiy o'sish emas, balki uning aholi hayotidagi amaliy ifodasidir. Bugun Samarqand o'zining boy tarixi va madaniy merosini zamonaviy taraqqiyot bilan uyg'unlashtirayotgan hudud sifatida namoyon bo'lmoqda.

Endigi vazifa erishilgan natijalarni yanada rivojlantirish, yangi imkoniyatlarni ishga solish va aholi farovonligini ta'minlashga qaratilgan loyihalar ko'lamini kengaytirishdan iborat.

**Sherbek BO'RONOV,
viloyat hokimining birinchi o'rinbosari.**

Ko'pchilik yoshlar xorijda o'qishni orzu qiladi. Ammo bu orzu ko'pincha til bilmasslik, moliyaviy qiyinchiliklar yoki begona muhitga moslasha olmaslik kabi xavotirlar sabab ortga suriladi. Men ham Malayziyaga kelishdan oldin aynan shunday savollar va ikkilanishlar bilan yuzma-yuz kelgandim. Biroq bu yerga kelib, xorijda ta'lim olish aslida qiyin emas, balki katta imkoniyat ekaniga amin bo'ldim.

Xorijda o'qish qiyin emas

Bugungi kunda Malayziya Osiyodagi eng jadal rivojlanayotgan ta'lim markazlaridan biri hisoblanadi. Mamlakatda 70 mingdan ortiq xorijlik talabalar tahsil oladi va ular 100 dan ziyod davlatlardan kelgan. Bu esa Malayziyada haqiqiy xalqaro ta'lim muhiti shakllanganini ko'rsatadi. Shunday nufuzli oliy ta'lim muassasalaridan biri — Universiti Pendidikan Sultan Idris (UPSI) bo'lib, u ayniqsa, pedagogika yo'nalishida yetakchi universitetlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda universitetda 24 mingdan ortiq talaba tahsil oladi, ulardan 1500 dan ziyodi xorijiy talabalar hisoblanadi. Bu esa uni nafaqat mahalliy, balki xalqaro miqyosda ham tanilgan ta'lim maskaniga aylantirgan.

Universitetda ta'lim faqat pedagogika bilan cheklanib qolmaydi. Bu yerda ta'lim, til va lingvistika, san'at va dizayn, biznes va iqtisod, kompyuter fanlari hamda gumanitar yo'nalishlar bo'yicha ham tahsil olish mumkin. Ayniqsa, ta'lim (Education) yo'nalishi universitetning eng kuchli sohalaridan biri hisoblanadi. Xalqaro reytinglarga ko'ra, universitet umumiy reytingda 851–900 o'rinlarda bo'lsa-da, aynan pedagogika yo'nalishida dunyoning TOP 100–125 universitetlari qatoridan joy olgan.

Universitetning ilmiy salohiyati ham e'tiborga loyiq. Bu yerda 700 dan ortiq professor-o'qituvchilar faoliyat yuritadi, ular orasida xorijiy mutaxassislar ham mavjud. Bu esa talabalarga turli ilmiy maktablar va yondashuvlar bilan tanishish imkonini beradi. Moliyaviy jihatdan ham Malayziyada o'qish ko'plab davlatlarga nisbatan qulay hisoblanadi. Masalan, universitetda o'qish to'lovi semestriga o'rtacha 2000–3000 malayziya ringgiti atrofida bo'lib, yashash xarajatlari ham nisbatan arzon. Universitet hududida yotoqxona, kutubxona va boshqa zarur infratuzilmalar mavjud bo'lib, bu talabalar uchun qulay sharoit yaratadi.



Xorijiy talabalar tarkibi ham rang-barang. Universitetda Xitoy, Indoneziya, Yaqin Sharq davlatlari va Markaziy Osiyodan kelgan talabalar tahsil oladi. Ular orasida o'zbekistonlik yoshlar ham uchrab turadi. Bunday xalqaro muhitda o'qish nafaqat bilim olish, balki turli madaniyatlarni yaqindan o'rganish imkonini beradi.

Shaxsiy kuzatishlarimga ko'ra, universitetda ta'lim jarayoni an'anaviy yodlash tizimidan ko'ra, fikrlash va muhokamaga asoslangan. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi muloqot erkin, talabalar o'z fikrini ochiq bildirishga undaladi. Bu esa talabaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va mustaqil fikrlashini rivojlantiradi.

Dastlab til muammosi, yangi muhit va turmush tarziga moslashish biroz qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Ammo bu sinovlar vaqtinchalik bo'lib, ular orqali inson mustaqillik, sabr va moslashuvchanlikni o'rganadi.

Xorijda o'qish bu faqat diplom olish emas, balki hayot maktabidir. Malayziya tajribasi, xususan UPSI misolida ko'rish mumkinki, bugungi yoshlar uchun imkoniyatlar eshigi ochiq. Muhimi, qo'rquvni yengib, birinchi qadamni tashlash. Chunki katta natijalar aynan shu qadamdan boshlanadi.

Zarniso AKTAMOVA,
Samarqand davlat pedagogika instituti
xorijiy tillar kafedrası assistenti.

Farzand tarbiyasi — har bir jamiyatning muhim va mas'uliyatli vazifalaridan biri. Zero, bolaning ertangi kuni bugungi yaratilgan sharoit, berilgan e'tibor va to'g'ri yo'naltirilgan tarbiyaga bog'liq. Shu ma'noda, farzandlarimizni har tomonlama yetuk, sog'lom va bilimli qilib tarbiyalash uchun poydevorni aynan kichik yoshdan boshlab mustahkam qo'yish zarur.

Bugungi kunda shaharlarda davlat va nodavlat bog'chalar, maktablar hamda turli o'quv markazlari ko'paymoqda. Ularda zamonaviy jihozlar, ilg'or ta'lim texnologiyalari, malakali mutaxassislar jamlangan. Bolalar erta yoshdanoq suzish, raqs, sport va turli fan to'garaklariga qatnab, qobiliyatini rivojlantirish imkoniga ega.

Biroq shu imkoniyatlar barcha hududlarda birdek ta'minlangan, deb aytilish qiyin. Ayniqsa, chekka qishloq joylarda bu masala dolzarbligicha qolmoqda. Ba'zi qishloqlarda bog'chalar yetishmaydi, mavjudlarida esa shart-sharoitlar talab darajasida emas. Maktablarda malakali o'qituvchilar yetishmasligi ham ta'lim sifatini to'liq ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda.

Alohida e'tibor talab etadigan jihatlardan biri bolalar nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etish masalasidir, — deydi Qo'shrabot tumanining olis mahallalaridan birida yashovchi tanishim. — Logoped xizmatlarining yetishmasligi sababli ayrim oilalar farzandlarini viloyat markazlariga olib borishga majbur bo'lmoqda. Bu esa vaqt va mablag' jihatidan qiyinchilik tug'dirib,

Qishloq bolalari uchun logoped kerak(mi?)



ba'zan bolalarning ta'lim jarayonidan ortda qolishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, imkoniyati cheklangan oilalar uchun bu masala yanada murakkab.

Shu nuqtada tabiiy savol tug'ildi: barcha bolalar uchun teng imkoniyatlarni qanday ta'minlash mumkin? Chunki bolalikda olingan bilim va ko'nikmalar insonning butun hayotiga ta'sir ko'rsatadi. Qishloq bolalari ham o'z qiziqishlari va iqtidorini rivojlantirish imkoniga ega bo'lishi kerak.

Chekka hududlarda davlat standartiga javob beradigan bog'chalar, maktablar, o'quv markazlari va ayniqsa, logoped kabi mutaxassislar faoliyatini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki ijtimoiy tenglikni ta'minlashga ham xizmat qiladi.

Yana bir jihat, qishloqdan yetishib chiqqan mutaxassislarning o'z hududiga qaytib, shu yerda faoliyat yuritishini rag'batlantirishdir. Zero, ular o'z yurtining ehtiyojini yaxshi biladi va shu asosda samarali ish olib borishi mumkin.

Albatta, ayrim hududlarda ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Yangi o'quv markazlari tashkil etilmoqda. Ammo bog'cha yoshidagi bolalar bilan ishlaydigan mutaxassislar, xususan, logopedlar hali ham yetarli emas.

Farzandlar — kelajagimiz. Ularning barkamol bo'lib ulg'ayishi esa faqat ota-onaning emas, balki butun jamiyatning vazifasi. Shu bois har bir bolaga teng imkoniyat yaratish yo'lidagi barchamiz birdek mas'ulmiz.

N.KARIMOVA,
o'qituvchi.

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

“SIYOB DEHQON BOZORI”

mas'uliyati cheklangan jamiyati ta'sischilari diqqatiga!

2026-yil 31-iyul kuni soat 10:00 da “Siyob dehqon bozori” mas'uliyati cheklangan jamiyati ma'muriyati binosida jamiyat ta'sischilarining navbatdagi yig'ilishi o'tkaziladi.

Yig'ilish kun tartibi:

- Jamiyat direktorining 2026-yil 1-yarim yilligi va “Siyob dehqon bozori” MCHJ faoliyatini tartibga solish, aholiga qo'shimcha qulaylik va sharoitlar yaratish, obodonlashtirish hamda infratuzilmani yaxshilash bo'yicha bajarilgan ishlar to'g'risidagi hisoboti;
- “Siyob dehqon bozori” MCHJ kuzatuv kengashining 2026-yil 1-yarim yillik hisoboti;
- Jamiyat taftish komissiyasi hisoboti;
- 2026-yil 1-yarim yillik yakunlari bo'yicha balans va moliyaviy natijalarni tasdiqlash;
- Jamiyatning 2026-yil 1-yarim yillik yakuni bilan auditorlik tekshiruvini o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini aniqlash va unga to'lanadigan haq miqdorini belgilash;
- Jamiyatning 2026-yil 2-yarim yillikka mo'ljallangan biznes rejasini tasdiqlash;

- “Siyob dehqon bozori” MCHJ shtatlar jadvalini tasdiqlash;
- “Siyob dehqon bozori” MCHJ kuzatuv kengashi a'zolarini saylash;
- “Siyob dehqon bozori” MCHJ kuzatuv kengashi taftish komissiyasini saylash;
- Xalq ijodkorligi mahsulotlarini 3-pavil'on poliz mahsulotlari yoniga joylashtirish masalasi;
- Bozorda o'rnatilgan kuzatuv kameralari, quyosh panelli yoritgichlar, yotqizilgan asfalt hamda xarid qilingan o'rindiqlar (skameyka) uchun amalga oshirilgan xarajatlarni hisoboti;
- “Siyob dehqon bozori” MCHJga tegishli hududlar, bino va inshootlarni ijaraga berish qoidalarini, muddatli ijaraga berish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash to'g'risida;
- Boshqa masalalar.

Manzil: Samarqand shahri, Bibixonim (8-mart) ko'chasi, 8-uy.

Murojaat uchun telefon raqami: (+99891) 538-27-58.

**“SIYOB DEHQON BOZORI”
MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI MA'MURIYATI.**

DA'VOLAR BO'LSA!

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Xasanov Tavakalga (2025-yil 28-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko'chasi, 5/1-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasida marhum Bobokalonova Dilbar Mustafayevnaga (2025-yil 17-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Shukurova Lobar Olimjon qizi notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Spitamen shohko'chasi, 157-“B” uy. Mo'ljal: Samarqand viloyat IIB YHXB, shahar mudofaa ishlari bo'limi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasida marhum Norjigitov Abdusodikga (2025-yil 27-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Nishonova Umida Ismatillayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 132-uy, 2-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasida marhum Karimov Aminga (2009-yil 14-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning

Mavlonova Marjona Komilovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gulobod ko'chasi, 5-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Aminov Sattarga (2017-yil 21-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Xalikov Raximjon Turayevichga (2026-yil 26-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasida marhum Muxidinov Asliddin Ashurovichga (2025-yil 3-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Kamoliddin Muhiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Xo'jamqulov Husan O'rinboyevich notarial idorasida marhum Saidova Oytula Xoniya-zovnaga

(2025-yil 9-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Xo'jamqulov Husan O'rinboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 152-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasida marhum Yusufova Qurbanga (2009-yil 3-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Jo'rayev Mubin Ne'matjonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Soniy ko'chasi, 1-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Do'labov Amirqul Uzakovichga (2017-yil 1-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Muradimov Orif Bahromovichga (2025-yil 13-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi

notarius Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasida marhum Abduxamedov Nasimjanga (2020-yil 3-oktabrda vafot etgan) egishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Islomov Shuhrat Qarshiboyevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 13-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Ergashev Rustam Abdurasulovichga (2017-yil 5-iyulda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 117-uy.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasida marhum Xujayev Xodixon Tuychiyevichga (2025-yil 12-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Toshtemirov Alisher Po'latovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqlol ko'chasi, 117-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasida marhum Bobokulova Umaroga (2025-yil 14-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Qodirov Ulug'bek Tolibovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Ibn Sino ko'chasi.

BEKOR QILINADI!

Davlat mulki qo'mitasi Samarqand viloyat hududiy boshqarmasining 1993-yil 14-sentabrda 311-// raqamli buyrug'iga asosan Samarqand shahri N.Yakubov ko'chasi, 4-uyda joylashgan “MAISHTEXSOZ” jamoa korxonasi mulki uchun 1993-yil 12-oktabrda berilgan 147-sonli mulkiy huquqni tasdiqlovchi muvaqqat davlat orderi yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

Fuqarolar Abduvoxidov Davlat Hasanovich va Pirmanova Shahnoza Sur'atovnalari o'rtasida 2025-yil 10-setabrda Samarqand shahri, Gulobod MFY, Al Motrudiy ko'chasi 47-uy-joyning 96/100 qismi uchun tuzilgan, Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Nurqosimov Ramziddin Sayfiddinovich tomonidan tasdiqlanib, № 202501798002705 raqam bilan reestrda qayd qilingan kuchmas mulk (uy) oldi-sotdi shartnomasining sotib oluvchidagi asl nusxasi yo'qolganligi sababli bekor qilindi.

O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi hamda barcha tarmoq kasaba uyushma kengashlari jamoasi “Tolib bobo AKT” MCHJ rahbari Erkin Tolibovga otasi

Amon TOLIBOVning vafoti munosabati bilan ta'ziya izhor etadi.

Mulohaza

Keyingi paytda ijtimoiy tarmoqlarda ovqat yeyishni tomosha va musobaqaga aylantirish holatlari ko‘payib ketdi. Ba‘zi kafe va restoranlar mijoz jalb qilish maqsadida shunday tanlov va chellenjlarni tashkil qilmoqda. Ularda ishtirokchilarga muayyan vaqtda bir necha kilogramm osh, o‘nlab dona somsа yoki judа ko‘p miqdordagi boshqa taomlarni yeb tugatish sharti ko‘yiladi. Evaziga esa pul mukofoti yoki bepul xizmat va‘da qilinadi.

Dasturxonni tomoshaga aylantiryapmiz

Yoxud qadriyatga zid targ‘ibot

Bir qarashda bu oddiy reklama usulidek tuyulishi mumkin. Ammo masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Chunki bunday videolar millionlab insonlar tomonidan tomosha qilinadi va ularning ongida turli tasavvurlarni shakllantiradi. O‘zbek xalqida dasturxon azaldan muqaddas hisoblangan. Nonni uvol qilmaslik, taomga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, ovqatni me‘yorda iste‘mol qilish kabi qadriyatlar avloddan avlodga o‘tib kelgan. Dasturxon atrofidagi odob-axloq esa milliy madaniyatimizning ajralmas qismi sanaladi. Shu bois taomni haddan ziyod ko‘p yeyish, uni musobaqaga aylantirish yoki odamlarni hayratga solish vositasi sifatida ko‘rsatish mentalitetimizga mos emas. Shifokorlar ham qisqa vaqtda haddan ziyod ovqat iste‘mol qilish oshqozon-ichak tizimiga og‘ir yuklama berishini, qon bosimi oshishi, hazm qilish buzilishi va boshqa xavfli holatlarga sabab bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi.

Yaqinda ijtimoiy tarmoqlarda vodiyan Samarqandga kelgan bir kishining katta hajmdagi oshni qisqa vaqtda yeyishga uringani aks etgan video tarqaldi. Video-da u ovqatlanish madaniyatidan yiroq harakatlarni amalga oshirdi. Hatto ovqatni hazm qila olmasa ham o‘zini majburlab taomlandi. Eng achinarlisi, inson salomatligi uchun ham, milliy qadriyatlar nuqtai nazaridan ham salbiy bo‘lgan bu jarayon ko‘ngilochar kontent sifatida taqdim etildi. Chunki kuzatuvchilar tomonidan million marta ko‘rildi, shuncha «layk» to‘pladi.

Muammoning yana bir jihati bor. Bugun ijtimoiy tarmoqlardagi kontent faqat mahalliy auditoriya bilan cheklanib qolmaydi. Turli



Fazliddin RO‘ZIBOYEV.

davlatlardagi foydalanuvchilar ham bu kabi videolarni ko‘ryapti. Shu bois bunday kontent ayrimlarda xalqimiz va mamlakatimiz haqida salbiy tasavvur uyg‘onishiga sabab bo‘lishi mumkin. Boshqa tomondan qaraganda, tadbirkorning o‘z biznesini reklama qilish huquqi bor. Bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir kafe yoki restoran mijoz jalb qilish uchun turli marketing usullaridan foydalalanishi tabiiy. Qonun ham reklama faoliyatiga ma‘lum doirada erkinlik beradi. Ammo erkinlik mas‘uliyat bilan uyg‘un bo‘lgandagina ijobiy natija beradi. Agar reklama inson salomatligiga zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan harakatlarni targ‘ib qilsa yoki jamiyatda salbiy munosabat uyg‘otsa, uning samarasi bahsli bo‘lib qoladi. Aslida yaxshi reklama faqat shovshuv orqali yaratilmaydi. Maza-li taom, tozalik, xushmuomala xizmat, milliy an‘analarga hurmat va mijozlar ishonchi har qanday chellenjdan ko‘ra kuchliroq targ‘ibot vositasidir. Qisqa vaqtda ko‘p tomoshabin yig‘ish mumkin, ammo bu har doim ham obro‘ degani emas.

Ijtimoiy tarmoqlarda mashhurlik har qanday vosita bilan qo‘lga kiritilishi mumkin degan qarash kuchaymoqda. Ayrim yoshlar mehnat qilish, bilim olish yoki kasb egallash orqali emas, balki shov-shuvli videolar orqali tez tanilishni maqsad qilib qo‘ymoqda. Natijada layk va kuzatuvchilar soni qadriyatlardan ustun qo‘yilayotgan holatlar ham uchrayapti. Holbuki, haqiqiy mashhurlik jamiyatga foyda keltirish, ibrat bo‘lish va ezuq ishlar bilan e‘tibor qozonish orqali keladi.

Xo‘sh, taomni haddan ziyod iste‘mol qilish yoki ovqatlanish madaniyatiga zid harakatlarni ijtimoiy tarmoqlarda targ‘ib qilish qanchalik to‘g‘ri? Masala bir video yoki bitta reklamada emas. Gap qanday qadriyatlarni targ‘ib qilayotganimizda. Chunki internetda tarqalgan har bir lavha nafaqat uning muallifi, balki xalqimiz madaniyati haqida ham turli tasavvurlarni uyg‘otadi. Dasturxon esa tomosha uchun emas, baraka, hurmat va milliy qadriyat ramzi sifatida qadrlanishi lozim. Zero, baraka haddan ziyod iste‘molda emas, me‘yor va hurmatda.

Fazliddin RO‘ZIBOYEV.

Хаёт бўлганида устоз, физика-математика фанлари номзоди, доцент Ортиқ Пардаев 89 ёшни қарши оларди. У кишининг юксак маданияти, чуқур билими, ҳақгўйлиги ва таълим тизимига қўшган беқиёс ҳиссаси доимо ёдимизда.

Илм-фан соҳаси, айниқса, физика каби мураккаб йўналишлар билан шугулланувчи олимларнинг меҳнати игна билан қудуқ қазिशга қиёсланиши бежиз эмас. Чунки бу йўналишда изланиш инсондан узоқ йиллик тинимсиз меҳнат, сабр-тоқат, чидам ва матонатни талаб этади. Фан номзоди, доцент, фан доктори, профессор, академик каби унвонлар замирида қанчадан-қанча уйқусиз тунлар, машаққатли изланишлар этади.

Ҳаёти Шароф Рашидов номидаги Самарқанд давлат университети билан ҳамбарчас боғлиқ бўлган физика-математика фанлари номзоди, доцент О.Пардаев ана шундай фидойи инсонлардан бири эди. Бир қарашда, устознинг ҳаёти бошқа ўқитувчиларникидан фарқ қилмаса-да, домла ўз соҳасининг билимдони, адолатпарварлиги, физика фани ва таълимнинг ривожига қўшган ҳиссаси билан минглаб талабалар қалбидан жой эгаллаганди.

Физика илми билимдони

О.Пардаев 1937 йил 30 июлда Жиззах вилояти Ғаллаорол туманининг Турк қишлоғида дунёга келди. Қишлоғидаги етти йиллик мактабни, Самарқанд шаҳридаги 10-мактабни тамомлаб, ЎзДУ (ҳозирги СамДУ) нинг физика-математика факультети физика бўлимида ўқиди. 1960 йилда меҳнат фаолиятини университетнинг назарий физика кафедрасида ассистентликдан бошлади. Кейинчалик кафедра доценти, мудири, профессор лавозимларига бўлган шарафли йўлни босиб ўтди.

Устоз талабалик пайтидаёқ доцент Л.Яковлев илмий раҳбарлигида диплом ишини бажариш учун Москва давлат университетида амалиёт ўтди. Бу диплом иши ўша даврда ядро таркибида нейтрон бўлиши мумкинлигини илк бор башорат қилган атоқли олим Д.Иваненконинг илмий семинарида ижобий баҳоланди. Ёш ўқитувчи О.Пардаев кейинчалик Қозон давлат университети аспирантурасига юборилди. Унга илмий раҳбар сифатида электрон парамагнит резонанс (ЭПР) ходисасини кашф этган машҳур олим С.Альтшулер тайинланди. Бироқ айрим сабабларга қўра, О.Пардаев 1964 йилда аспирантурадаги ўқилишни ЎзФА Ядро физикаси институтига қўчирди.

1974 йилда номзодлик диссертациясини муваффақиятли ҳимоя қилди.

1975-2022 йиллар давомида назарий физика кафедраси доценти ва мудири, магистратура бўлими бошлиги ўринбосари, назарий физика ва квант электроникаси кафедраси доценти, ядро физикаси ва астрономия кафедраси профессори лавозимларида фаолият юритиб, педагогик фаолиятини 2022 йилгача давом эттирди.

Олим 70 га яқин илмий мақола, рисола, дарслик ва ўқув-усlubий қўлланма, битта монография муаллифи. Унинг ҳаммуаллифликда ёзилган «Акусто-электрониканинг физик асослари» китоби яримўтказгичлар соҳаси мутахассислари томонидан юксак баҳоланган.

Устоз пенсияга чиққанидан сўнг ҳам соҳага доир фикрлари ва маслаҳатлари билан факультетнинг ёш ўқитувчиларига қимматли маслаҳатлар бериб турди. Университет профессор-ўқитувчилари А.Даруров, А.Қувватов, И.Субхонқулов, Ш.Умидуллаев, И.Жабборов, Н.Мухаммадиев, Қ.Муродов, С.Қурбониязовлар билан илм-фан соҳасидаги дўстона муносабатларини давом эттирди. У.Тўхтаев, У.Саъдуллаев каби ўқитувчилар билан биргаликда қатор

Хотира



ўқув-усlubий ва амалий ишларни нашр қилди. Жумладан, "Атомдан ядрога" ва "Квант физика тўғрисида суҳбатлар" илмий рисоалари, "Атом физикасидан масалалар ечиш", "Электродинамикадан масалалар тўплами" ва "Назарий физикадан масалалар тўплами" каби ўқув қўлланмалари бугунги кунда етук кадрлар тайёрлашда асосий манба вазифасини ўтамоқда.

О.Пардаев турмуш ўртоғи билан 5 нафар фарзандни тарбиялаб вояга етказди. Улар бугунги кунда жамиятда ўз ўринларини топиб, меҳнат қилишмоқда.

Устоз Ортиқ Пардаевнинг порлоқ хотираси Самарқанд давлат университети, хусусан, муҳандислик физикаси институти жамоаси, шогирдлари ва дўстлари қалбида яшамоқда.

Мўмин ҚОДИРОВ,
Рашид ЭШБЎРИЕВ,
Улуғбек ТЎХТАЕВ.

Хазон бўлган умр

Аҳад келажаги бундай аянчли бўлади деб ўйламаган эди. Бир амаллаб мактабни битириб, на ўқишга кирди, на бирор касб эгаллади. Отасининг топганини еб, ўзига ўхшаган ўртоқлари билан тараллабедод юрди. Унга панд-насихат ҳам кор қилмас, отасига мададкор бўлиш ҳаёлига ҳам келмасди. Ўғлини уйлантириб орзу-хавасини кўриш насиб қилмаган экан, вақти қазо этиб, чол-кампири бандаликни бажо келтиришди. Гулдай яшаган томорқа, ҳовли-жой хувиллаб қолди.

Аммо Аҳад бирор жойда ишлаш, қўлига кетмон олиб, отамерос томорқага қарашни ҳаёлига келтирмасди. Бир сўм пул, бир бурда нонга зор, гангиб қолди.

Шундай кунларнинг бирида санғиб юрар экан, бир пайтлар мактабни ташлаб кетган синфдоши Раҳимни кўриб қолди.

- Омонмисан, жўра, - Раҳим уни ресторанга олиб кирди. -Рухингни туширма. Маслаҳатимга амал қилсанг, икки йилда миллиардер бўлиб кетасан, уйланасан, машина оласан, данғиллама уй-жойли бўласан.

- Қандай қилиб? Ўқимаган бўлсам, бирор хунарим бўлмаса.

- Эй, нодон дўстим-а, бунчалик лақма бўлмасанг, каллани ишлатиш керак, ҳалиям довдирлигингча қолибсан. Ушла, мана буни ичайлик, сенга тушунтираман, - Раҳим арок тўла пиёлани узатди.

- Қани, олдик!

Ичишди, Раҳим пиёлани бўшатгач, қув кўзларини Аҳадга тикди:

- Ҳовлигини сот!

- Нима? Ахир у ота-онамдан қолган ёдгорлик,

уни сотсам қаерда яшайман?

- Ҳозирча уйингда яшаб турасан, сотиб олган кишига вақтинча десанг, йўқ демайди. Пулни белингга туғасанда Россияга, хоҳласанг бошқа давлатга ишга кетасан, мен ўзим сенга ёрдам бераман.

- Қандай бўларкин? Умримда бир ерда ишламаган бўлсам, бегона юртларда эллаб кетармиканман?

- Эплайсан, мана, мен сенга ёрдам бераман!

- Қишлоқда уй-жой сотиш қийин. Харидор топи-

лармикан?

Ширакайф Аҳад жарақ-жарақ пулларни, шохона ҳаётни кўз олдига келтирди.

- Буёғидан кўнглинг тўқ бўлсин, харидор топилади, топилмаса мана, мен сотиб оламан, - Раҳим Аҳаднинг гапга лаққа тушганидан дадилланиб данғалига ўтди. - Эртага нотариусга бориб ҳовли-жойингни баҳолаб, номимга ўтаказамиз. Фақат бир шартим бор, пулини кейинроқ тўлайман. Ҳозирча расмийлаштириш, Россияга бориш, ишга жойлаштириш харажатларини тўлайман.

- Мана бу ишинг юришиб кетгунча еб-ичишинг учун, - Раҳим Аҳадга бир даста пул узатди. Кутилмаган маслаҳат ва тақлифдан довдираб қолган Аҳад пулни санаб ҳам кўрмасдан чўнтагига солди. - Сен хавотир олма, сени ўзим ишга жойлаштириб келаман, танишларим мард, сахий йигитлар, бир йилда миллионер эмас, миллиардер бўлиб кетасан.

Раҳим Аҳадни эркалаб елкасига уриб қўйди.



Уй-жойни сотиш, нархлаш, нотариусдан расмийлаштириш ҳеч қандай қийинчилик туғдирмади. Барча юмушни Раҳимнинг ўзи бажарди. Аҳад фақат тегишли ҳужжатларга имзо чекиб турди...

- Ана, келдик, Новосибирск деб эшитган бўлсанг, бу ер ўша жой. Қара, ўрмонзорлар қандай чиройли, ҳозир сени дўстларимга таништираман, - Раҳим Аҳадни катта чорвачилик фермасига бошлаб келди.

Ферма эгаси билан қучоқлашиб кўришгач, Аҳадни унга таништирди. Аҳад русчани тушунмаса-да, Раҳим билан фермернинг кадрдонлигини кўриб кўнгли таскин топди.

- Мана, бўлди, - деди Раҳим Аҳадга, - ҳужжатларинг ҳозирча фермерда туради. Зарур бўлганда оласан. Мен қишлоққа қайтаман, бази чала ишларимни битириб келаман. Бемалол, хавотир олмадсан ишлайвер, ҳақингни хоҳласанг долларда, хоҳласанг рублда тўлашди. Хайр ҳозирча, ха айтгандай, сўзлашувда қийналмайсан, ҳали танишиб оласан, бу ерда ишлаётганлар юртдошларимиз.

Раҳим қишлоққа қайтар экан, бу гал қармоғига илинган ўлжадан жуда мамнун бўлди. Одам савдоси, фирибгарлик билан шугулланганда буён бундай омади келмаганди. Энди тезроқ Аҳаднинг уйига харидор топиб пуллаб олса бўлди, марра уники.

Тоғаймурод ШОМУРОДОВ.

Sadmir muallim ishdan ketar ekan. Direktor uning endi bu maktabda bir kun ham ishlamasligini aytibdi.

Bu xabar tezda maktab devorlaridan chiqib, butun mahallaga tarqaldi. Afsus, u ona tili va adabiyot fanidan dars beradigan yaxshi o‘qituvchi edi: hech kimga ozor bermaydigan, halol mehnat bilan kun o‘tadigan, bolalar uchun to‘garaklarni ham beminnat ko‘radigan kamtar ustoz.

Bir kuni maktab yig‘ilishida o‘qituvchilarning ko‘pchiligi Sadir muallimning ketmasligini istab, direktorga qarshi chiqishdi. Faqat “tilchilar” jim turishdi, xolos.

– Bir kun ham ishlamaydi, – dedi direktor qat‘iy. – Chunki u o‘quvchining qulog‘idan tortib, sinfdan haydat chiqargan. Keyin ota-onasi kelib, uning aybini tan oldirganini telefon diktofoniga yozib olishgan. Bu audioyozuv ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan. Maktabimiz sha‘niga putur yetkazdi bu ustoz.

Afsus, u bu ishni shu o‘quv yilida zo‘rg‘a topgandi. Hozir o‘quvchilarni milliy sertifikatga tayyorlayotgan edi. O‘quvchilarining ko‘pchiligi bir oydan keyin “A+” dara-

O‘quvchisining qulog‘ini ushlab ishdan ketdi

jadagi sertifikat olishiga uning ishonchi komil edi.

Aslida esa voqea butunlay boshqacha bo‘lgan. Bunga men va mening yigirmadan ortiq sheriklarim guvoh bo‘lganmiz. Qaniydi buni direktorga yoki ustozni ishdan bo‘shatishni talab qilgan “kattalar”ga ayta olsak. Qaniydi ular bizni eshitishsa. Afsus, ayta olmaymiz, hech kim bizni eshitmaydi.

Ota-onasiga arz qilib borgan o‘sha bola – Shermat. Sinfdagi eng to‘polonchi, qaysar, ququvsiz o‘quvchi.

Bir kuni katta tanaffusda Sadir muallim kundalik comga baho qo‘yib o‘tirardi. Sinfxonada faqat klaviatura tovushi eshitilar, ba‘zan muallimning yengil xo‘rsinishi quloqqa chalinar.

Shunda eshik ochilib, Shermat kirib keldi. Uning yuzida har doimgi masxaraomuz tabassum.

– O‘tgan safar darsingizdan qochib ketganimni “zauch”ga chaqib beribsiiz, – dedi u va muallimning javobini ham kutmasdan so‘zida davom etdi. – U onamga aytibdi. Men esa yolg‘on dedim. Baribir onam menga ishonadi. Bugun ham oxirgi soat sizniki ekan. Men ketyapman. Ishlarim bor. Orqamdan bir gap qilsangiz, mendan yaxshilik kutmang.

Sadir muallim bir lahza jim turdi. Kompyuter ekranidagi yorug‘lik uning ko‘zoynagiga tushib, ko‘zlarini yashirib qo‘ygan edi.

– Sen anchadan beri asabimga tegib yuribsan, Bo-

qiyev, – dedi ustoz sokin ovozdа. – Hozir sinfdan chiqib ket. Mening ishim ko‘p. Tanaffus paytida ulgurmasam, direktordan gap eshitaman.

Shermat kuldi:

– Chiqmayman. Chiqmasam, nima qilasiz? Urasizmi? Qani, chertib ko‘ring.

Muallim chuqur nafas oldi.

– Senga yaxshi gap bilan aytapman. Biz o‘qigan davrda maktab muhiti boshqacha edi. Sinfimizda senga o‘xshagan qaysar bir bola bor edi. Bir kuni tinch o‘tirmagani uchun o‘qituvchi uning qulog‘idan tortib, sinfdan chiqarib yubordi. Uning nohaqlikka chidolmaydigan, kerak bo‘lsa, butun mahallani boshiga ko‘taradigan baqiroq buvisi bor edi.

Charos NARZULLAYEVA.



Mazkur maqolaning to‘liq matnini ushbu QR-kod orqali o‘qishingiz mumkin.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 10 313 nusxada chop etildi. Buyurtma 286. Hajmi 2 bosma tabaqo, bichimi A-2

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E‘LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

O‘.XUDOYBERDIYEV.


Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda